

Masofaviy ochiq muloqot

Agroturizm - kishilarning doimiy yashash joylaridan muayyan muddatga dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashtirish, ma'rifiy-ma'naviy kabi vazifalarni ko'zlagan shakldagi qishloq tabiati, hayot tarzi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, uning mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlarga uyushtiriladigan, tashkil etiladigan sayohatlardir. 03.02.22 Kuni soat 9.00.da Tabiiy kartalarni loyihalash va tuzish fanidan «Agroturistik kartalarni tuzish» mavzusi bo'yicha ochiq dars masofadan zoom platformasi orqali o'tkazildi. Ma'ruzachi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Botanika va ekologiya" kafedrasida dotsent v.b. PD Yakubjonova Shoxsanam Toshkanboevna agroturistik kartalarni tuzishda ma'lumotlarni to'plash, tuzish yo'llari, marshrutlarni tashkil etish, Farg'ona turistik rayonini turistik imkoriyatlarini kartada aks ettirilishi yuzasidan ma'lumotlar berdi. Agroturistik kartani tuzish yuzasidan talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar.



Agroturizm ob'ektlari sifatida: (agrolandshaftlar) - ular o'ziga xos ko'rinish va hududiy tashkil etish xususiyatlariga, mahsulot yetishtirish texnologiyalari zanjiriga, mahsulotlarni saqlash va realizatsiya qilishning hududiy farqlariga, agroturistik salohiyatga ega bo'ladi;

12. agrar sohaning bir-biridan tubdan hududiy farq qiladigan makrozonal turlarining mavjudligi: cho'l (sahro) tekislik, sug'oriladigan antropogen tekislik, tog' zonalarida qishloq xo'jaligi;
13. qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan etnografik odatlar, texnologiyalar, voqea, hodisa va jarayonlarning mavjudligi;
14. qishloq aholisining tarixan shakllangan, o'ziga xos agroturistik xususiyatga ega bo'lgan turmush tarzi bilan bog'liq milliy o'ziga xoslik (an'analar, urf-odatlar, marosimlar) kabilar xizmat qilishi tushuntirildi.



Masofaviy ochiq muloqot darsida 2-3-kurs Geodeziya va geoinformatika yo'nalishi talabalari to'liq, hamda 213-214 Yerni masofadan zondlashdi innovatsion texnologiyalar guruhi talabalari qatnashib, qiziqarli va kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldilar. "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida dotsenti O.Ro'ziqulova axboroti

Universitet matbuot xizmati